
Farg'ona va Marg'ilon shaharlarini bog'lovchi yo'l o'tkazgich 1 noyabrga qadar foydalanishga topshiriladi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona va Marg'ilon shaharlarini bog'lovchi yo'l o'tkazgichda amalga oshirilayotgan ta'mirlash ishlarini ko'zdan kechirdi.

1976 yilda qurilgan, uzunligi 165 metr, eni piyodalar yo'lagi bilan jami 24 metr bo'lgan ushbu yo'l o'tkazgichda hozirga qadar ta'mirlash ishlari amalga oshirilmagan.

Yo'l o'tkazgichni oraliq qurilmalari (balkalari) va chetki to'siqlari, yoritish ustunlari yaroqsiz holatga kelganligi sababli, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 29 apreldagi yig'ilish bayoniga asosan Farg'ona va Marg'ilon shaharlarini bog'lovchi 4R-140a "Farg'ona shahriga" avtomobil yo'lining 5 kmdagi yo'l o'tkazgichni to'la ta'mirlash ob'ekti 2022 yil ta'mirlash ishlari dasturiga kiritilgan.

2022-09-21 19:19:55